



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

5-son (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 5 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### **07.00.00- TARIX FANLARI:**

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### **08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:**

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### **09.00.00- FALSAFA FANLARI:**

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### **10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:**

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Qurbanova Marg'uba*

O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY  
OMMALASHTIRISH VOSITALARI ..... 13-15

*Polvanov Azim Kuchkarovich*

AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING  
MANBALARDА YORITILISHI ..... 16-21

*Esnazarova Zulfiya Baltashovna*

QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI  
(1873 – 1924) ..... 22-27

*Axmedov Shaxzod Farxon o'g'li*

O'ZBEKİSTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN  
(1991 – 2017-yillar) ..... 28-36

*Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid*

IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR  
XODIMLARNING ISHTIROKI ..... 37-43

*Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li*

XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI ..... 44-47

*Asadova Ra'no Baymanovna*

INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM  
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN  
(CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE) ..... 48-52

*Esanova Nilufar*

1991-2024 YILLARDA O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING SANOAT  
SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR  
(HINDİSTON VA XİTOY MAMLAKATLARI MISOLIDA) ..... 53-56

*Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li*

O'ZBEK XONLIKLERİ VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON  
O'RТАSIDAGI SIYOSIY ALOQALAR ..... 57-64

*Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li*

HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI  
AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA ..... 65-70

*Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li*

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT  
SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI ..... 71-74

*Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich*

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMİR  
YO'LİNİNG QURILISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI ..... 75-80

*O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li*

ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKİSTON SANOATI ..... 81-88

## **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov</i>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH .....	89-98
<i>Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi</i>	
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:	
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI?.....	99-104
<i>Xakkulov Akbar Uralovich</i>	
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI .....	105-111
<i>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:	
AVTOKRATIK RAHBARLAR .....	112-117
<i>Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna</i>	
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI	
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI .....	118-125
<i>Yangiboyev Rustam Berdiyarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	126-131
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN	
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK	
XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI .....	132-143
<i>Eshqobilova Nigoraxon, Qurbanova Safiyabonu</i>	
DAVLAT BUDGETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING	
NAZARIY ASOSLARI .....	144-150
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING	
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI .....	151-159
<i>Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz</i>	
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY	
IN UZBEKISTAN .....	160-172

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Ahmedova Dilrabo</i>	
YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY	
JARAYONLARNING TA'SIRI .....	173-177
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING	
FALSAFIY TAHЛИLI .....	178-184
<i>Kurbanaliyev Ural Xatamovich</i>	
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH	
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI .....	185-189
<i>Soipova Mayjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI .....	190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI .....	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI .....	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i>	
YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI .....	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i>	
O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI .....	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i>	
IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINLAR .....	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i>	
КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА .....	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY OMILLARI .....	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI .....	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI .....	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i>	
TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI .....	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i>	
YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI .....	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i>	
SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI .....	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i>	
GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI .....	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i>	
YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI .....	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i>	
TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANТИRISH HAQIDAGI QARASHLAR .....	265-271
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i>	
СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК .....	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i>	
PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS .....	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanova</i>	
A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS .....	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i>	
ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR .....	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI .....	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i>	
MARGARET DRABBLENING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH .....	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i>	
A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS .....	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI .....	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i>	
ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION .....	332-337
<i>Nazimova Himmatoj</i>	
"DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI T AHLILI .....	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i>	
SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI .....	343-348
<i>Azizova Feruza Rejvaliyevna</i>	
TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI .....	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i>	
XITOY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI .....	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i>	
SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION .....	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i>	
DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA .....	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i>	
BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI .....	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i>	
TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	373-376

*Mamadiyorova Hilola*

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI ..... 377-384

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Abdullayeva Nodira Odil qizi*

OILAVIY (MAISHIY ) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI ..... 385-393

*Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li*

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR ..... 394-399

*Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li*

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING  
PREDMETI VA USULLARI ..... 400-407

*Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора*

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ  
ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ ..... 408-413

*Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li*

BURHONUDDIN MARQ'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO  
MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR ..... 414-420

*Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi*

SUN'YI INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):  
MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI ..... 421-432

*Burxonov Shahzod Burxon o'g'li*

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI  
TARTIBGA SOLISH ..... 433-438

*Avezov Umidjon Toshpulatovich*

O'ZBEKİSTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH  
BOSQICHLARI TAHLILI ..... 439-446

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Максудов Улугбек Курбанович*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ  
СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ  
В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ..... 447-453

*Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza*

SUN'YI INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... 454-458

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

*Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmira*

TALABALARDA TAHLILII FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
ASOSLARI ..... 464-468

*Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich*

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMI LI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS  
FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i>	
GLOBALASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM	
YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSALARIDA O'QUVCHILARGA	
AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI .....	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i>	
TEXNOLOGIYA DARSALARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL	
ETISHNING AHAMIYATI .....	491-495
<i>Abdullaeva Dilgora Ulugbekovna</i>	
AKTUAL'NYIE PROBLEMY PREPODABANIIA PRAVOVYX DISCIPLIN	
W TEKHICHESKIH VUZAX .....	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA	
RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR .....	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i>	
SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS	
IN PEDAGOGICAL ACTIVITY .....	509-514
<i>Avazova Munisa</i>	
TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIIYASINI OSHIRISH:	
GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI .....	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazliddinov Muhammadali</i>	
SUN'YI INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI	
ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH .....	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI	
MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN	
ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV	
METODLARI .....	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART	
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI .....	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i>	
KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI	
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY	
YONDASHUVLAR .....	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI	
SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI( PIRLS)GA	
TAYYORLASH USULLARI .....	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT	
TARBIYASINING O'RNI .....	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i>	
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI .....	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i>	
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI .....	563-568

**Received:** 15 April 2025**Accepted:** 1 May 2025**Published:** 10 May 2025*Article / Original Paper***SERVICE DELIVERY THROUGH MOBILE APPLICATIONS:  
CONVENIENCE OR A TOOL OF CONTROL?****Maxammadaliyeva Muslimaxon SherAli kizi**

Fergana State University

PhD of Regional Economics

**Abstract.** This article explores the modern model of service delivery through mobile applications. Using Uzbekistan's experience, it evaluates the convenience of digital services—financial, governmental, and commercial. It also addresses how user actions, geolocation, and personal data are consistently tracked. The author examines whether mobile convenience comes at the cost of increased surveillance and trust challenges.

**Keywords:** mobile applications, digital services, user trust, information security, personal data, geolocation, surveillance, legal guarantees.

**MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:  
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI?****Maxammadaliyeva Muslimaxon SherAli qizi**

Farg'onan davlat universiteti

"Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasi doktoranti

E-mail: [mmahammadaliyev@inbox.ru](mailto:mmahammadaliyev@inbox.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatishning zamoniaviy modeli tahlil qilinadi. O'zbekiston tajribasi asosida molivayi, davlat va boshqa raqamli xizmatlar qulayligi baholanadi. Shu bilan birga, ushbu ilovalar orqali foydalanuvchi harakati, joylashuvi va shaxsiy ma'lumotlari doimiy qayd etilayotgani e'tiborga olinadi. Muallif mobil qulaylik ortida nazorat elementlari mavjudligini tahlil qilib, raqamli xizmatlar bilan bog'liq ishonch va xavfsizlik muammolarini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** mobil ilovalar, raqamli xizmatlar, foydalanuvchi ishonchi, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar, geolokatsiya, nazorat, huquqiy kafolatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N17>

**Kirish.** So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish sohasi kengayib bormoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatda mobil aloqa bilan ta'minlangan abonentlar soni 34 milliondan oshdi, bu esa har 100 kishiga 79 birlikni tashkil etadi [3]. Bu ko'rsatkichlar mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay muhit yaratmoqda.

Mobil ilovalar orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar turli sohalarni qamrab oladi. Masalan, "Soliq" mobil ilovasida 2024-yil yanvar oyi holatiga ko'ra, 5 726 800 foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 5 385 500 tasi faol foydalanuvchilar hisoblanadi [4]. Bu raqamlar mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatishning ommalashganligini ko'rsatadi.

Biroq, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatishning qulayligi bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash

masalalari ham dolzARB bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2024-yil 21-mayda qabul qilingan 3513-sonli qaror bilan to'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning to'lov tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish choralarini ko'rish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi [1]. Ushbu hujjat mobil ilovalar orqali ko'rsatiladigan xizmatlarda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muhim qadam hisoblanadi.

Shuningdek, 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan PF-113-sonli Prezident farmoniga muvofiq, davlat xizmatlaridan foydalanish uchun Mobil-ID tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali shaxsga doir ma'lumotlarni "Elektron hukumat" tizimidan foydalanishning yangi tartibi belgilandi, bu esa shaxsiy ma'lumotlarning konfidensialligini va ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan [1].

Ushbu maqolada mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatishning qulayliklari bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash va nazorat vositalari sifatida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatishning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, mavjud muammolarni ko'rsatish va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** O'zbekistonda raqamli xizmatlar, ayniqsa mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish sohasining tez sur'atlarda rivojlanishi ilmiy hamjamiyat, davlat boshqaruvi, moliyaviy institutlar va texnologik kompaniyalar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu xizmatlarning aholi uchun qulaylik yaratishdagi roli bilan bir qatorda, ularning axborot xavfsizligi, foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlash tartibi va nazorat mexanizmlariga bog'liq jihatlari tobora ko'proq muhokama qilinmoqda.

Raqamli xizmatlarning huquqiy asoslarini o'rganishda 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun muhim huquqiy manba hisoblanadi [5]. Ushbu qonun shaxsiy ma'lumotlarning yig'ilishi, saqlanishi va uzatilishi bilan bog'liq asosiy tamoyillarni belgilab beradi. Qonunning 10-moddasida subyektning roziligidiz shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash taqiqlanishi belgilangan bo'lib, bu mobil ilovalar orqali to'planadigan ma'lumotlar bilan ishlash amaliyotida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, 2024-yil 21-maydag'i O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 3513-sonli qarori bilan tasdiqlangan axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik bo'yicha nizom, mobil to'lov ilovalari va raqamli xizmatlar foydalanuvchilarining ma'lumotlarini muhofaza qilish mexanizmlarini amaliy jihatdan tartibga solib beradi [1].

Raqamli xizmatlar orqali shaxsni identifikatsiya qilish tartibi, xususan, "Mobil-ID" tizimi orqali, 2022-yil 20-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-113-son farmoni bilan tasdiqlangan hujjatlarda batafsil yoritilgan. Ushbu hujjatda elektron xizmatlardan foydalanuvchining ishonchli identifikatsiyasi uchun yagona tizim yaratish va uni qonuniy asosda joriy etish mexanizmi ishlab chiqilgan. Bu tizim orqali foydalanuvchi biometrik va boshqa shaxsiy ma'lumotlari orqali davlat xizmatlaridan foydalanishi mumkin, bu esa ularning himoyasini kuchaytirish bilan birga, nazorat darajasini ham oshiradi [2].

Mobil ilovalarning real ommaviyligini tasdiqlovchi muhim ochiq manbalardan biri – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy statistikasi hisoblanadi. Unga ko'ra, "Soliq" mobil ilovasida 2024-yil boshida 5,7 milliondan ortiq foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu mobil xizmatlarning davlat sektori darajasida qanday ommalashganini ko'rsatadi. Bu

kabi ilovalarning faol ishlashi qulaylik bilan birga, foydalanuvchi xatti-harakatlari, to'lovlar, joylashuv va boshqa ma'lumotlar doimiy qayd etilib borayotganini ham anglatadi [3].

Mobil aloqa va internet tarmog'ining keng qamrovida tarqaganligi haqida Statistika agentligi e'lon qilgan raqamlar ham bu sohadagi o'sish jarayonini to'liq aks ettiradi. 2024-yil fevral oyidagi rasmiy axborotga ko'ra, mobil aloqa bilan ta'minlangan foydalanuvchilar soni 34 milliondan oshgan, ya'ni aholining katta qismi mobil xizmatlardan faol foydalanmoqda [4;]. Bu esa shaxsiy axborotlar aylanishi hajmining o'sishini ham bildiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonda mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish sohasini yorituvchi ilmiy-analitik manbalar, huquqiy hujjatlar va statistika hisobotlari mavjud bo'lib, ular mazkur sohaga yondashishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar foydalanuvchi ishonchi, axborot xavfsizligi va nazorat mexanizmlari o'rtaida muvozanatni saqlash zaruratini doimiy ta'kidlab kelmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqola O'zbekiston sharoitida mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatishning qulaylik jihatlari bilan bir qatorda foydalanuvchilar ustidan nazorat elementlarining mavjudligini aniqlashga yo'naltirilgan. Tadqiqotda tizimli va kompleks yondashuv asos qilib olingan bo'lib, u bir nechta metodlarni uyg'unlashtirish orqali amalga oshirildi.

Avvalo, deskriptiv (ta'riflovchi) metod yordamida mavjud holat tasvirlab berildi. Mobil ilovalarning qanday xizmatlar taqdim etishi, foydalanuvchi ma'lumotlari bilan qanday ishlashi, ularning funksional imkoniyatlari, so'nggi yillardagi o'sish dinamikasi va foydalanish statistikasi asosida izoh berildi.

Huquqiy tahlil metodi orqali mobil xizmatlar bilan bog'liq normativ-huquqiy asoslar, jumladan, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli xavfsizlik, davlat xizmatlaridagi identifikasiya tizimlari va foydalanuvchi roziligi masalalari o'rGANildi. Amaldagi qonunchilik normalari va ulardagi mavjud bo'shliqlar alohida ko'rib chiqildi.

Solishtirma tahlil usuli orqali O'zbekistonda joriy etilgan mobil xizmatlar (masalan, Click, Payme, Soliq, MyGov) faoliyati boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu orqali nazorat darajasi, foydalanuvchi huquqlari, axborot xavfsizligi va ochiqlik mezonlari nuqtai nazaridan farqlar aniqlashtirildi.

Empirik tahlil esa mavjud statistik ma'lumotlarga, rasmiy hisobotlarga va foydalanuvchi soni, xizmat hajmi kabi ko'rsatkichlarga asoslanib olib borildi. Ushbu usul orqali mobil ilovalarning real ommaviyligi va ijtimoiy ta'siri raqamlar orqali ko'rsatildi.

Shuningdek, kontent-tahlil yondashuvi asosida mobil xizmatlarga oid ochiq axborot resurslarida (ruxsat so'rovnomalari, ilova shartnomalari, "Privacy policy" hujjatlari) shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish bilan bog'liq iboralar o'rGANildi. Foydalanuvchi roziligi qanday olinadi, qaysi turdag'i axborotlar avtomatik tarzda yig'iladi, qanday ruxsatlar talab qilinadi — bularning barchasi amaliy jihatdan tahlil qilindi.

Metodlarning o'zaro uyg'unlashuvi tadqiqotning kompleksligini ta'minladi va mobil xizmatlarning qulaylik va nazorat o'rtaSIDagi nozik muvozanatini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

**Muhokama va natijalar.** O'zbekiston Respublikasida mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish tendensiyasi nafaqat texnologik infrastrukturani rivojlantirishga, balki xizmat ko'rsatish madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda davlat va xususiy sektorga tegishli raqamli xizmatlarning aksariyati mobil ilovalar orqali aholiga yetkazilmoqda.

Foydalanuvchilarning ilovalarga bo'lgan talabi va foydalanish chastotasi bu sohaning ommalashganini tasdiqlaydi.

O'rganilgan ochiq manbalarga ko'ra, 2024-yil holatida "Click" mobil to'lov ilovasi 13,2 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega bo'lgan bo'lsa, "Payme" 10,5 million, "Soliq" ilovasi 5,7 million, "MyGov" portalı esa mobil formatda 3,4 million foydalanuvchiga xizmat ko'rsatmoqda. Quyidagi jadvalda mobil ilovalar bo'yicha foydalanuvchilar soni ko'rsatilgan:

### **1-jadval. Mashhur mobil xizmat ilovalari va foydalanuvchi soni (2024)**

Ilova nomi	Foydalanuvchi soni (mln, 2024)
Click	16,2
Payme	11,6
Soliq	5,7
MyGov	8,5
Uzum	16

Manbalar: soliq-servis.uz, payme.uz, click.uz, my.gov.uz uzum.uz [3;6;7;8;9]

Mazkur jadvaldan ko'rinish turibdiki, elektron xizmatlardan foydalanish darajasi yuqori. Ayniqsa, to'lov xizmatlariga nisbatan ishonch yuqoriligini ko'rish mumkin. Ammo ushbu ilovalar foydalanuvchidan qanday ma'lumotlar va qanday ruxsatlar so'rayotgani masalasi ham muhim.

Mobil ilovalarning tezkorligi va foydalanuvchi uchun qulay interfeysga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ularning talab qiladigan funksional ruxsatlari doirasi ham kengaymoqda. Ilovalar foydalanuvchidan geolokatsiya, kontaktlar, galereyadagi fayllarga kirish, mikrofon yoki biometrik ma'lumotlar kabi shaxsiy axborotlarga ruxsat berishni talab qiladi. Quyidagi jadvalda mashhur mobil xizmatlar ilovalari tomonidan so'raladigan ruxsatlar turlari ko'rsatilgan:

### **2-jadval. Ilovalar tomonidan talab qilinadigan ruxsatlar**

Ruxsat turi	Click	Payme	Soliq	MyGov	Uzum
Geolokatsiya	1	1	1	1	1
Kontaktlar	0	0	1	0	0
Galereya	0	0	1	1	1
Mikrofon	0	0	0	1	1
Biometrik ma'lumotlar	1	1	1	1	1

Manba: ilovalarning rasmiy sahifalari, foydalanuvchi siyosati (Privacy Policy, Terms of Use) [3;6;7;8;9]

Ruxsatlarning mavjudligi foydalanuvchi xavfsizligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ilovalar tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar bilan qanchalik uyg'unligi, rozilik qanday shaklda olinayotgani — alohida tahlilni talab qiladi. So'rovnama va kontent tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda foydalanuvchilar ilovalarni o'rnatishda ushbu ruxsatlar haqida chuqur o'ylamaydi yoki ularni avtomatik ravishda qabul qiladi. Bu esa shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, nazorat va monitoring imkoniyatlari oshayotganini anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish sohasi texnik qulayliklar, tezkor yechimlar va interaktiv interfeyslar bilan birga, nazorat va shaxsiy axborotlarni boshqarish bo'yicha sezilarli xavotirlar ham uyg'otmoqda. Shu sababli, bu yo'nalishda foydalanuvchi roziligi, qonunchilik shaffofligi, axborot xavfsizligi va texnik nazorat muvozanatli tarzda amalga oshirilishi zarur.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va foydalanuvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, to'lov tizimlari va davlat xizmatlariga oid mobil ilovalar keng ommalashgan. Biroq xizmatlarning bu darajadagi qulayligi bilan birga, foydalanuvchilardan to'planadigan axborotlar hajmining ortishi, ruxsat siyosatlarining murakkabligi va nazorat elementlarining kuchayib borayotganini ham inkor etib bo'lmaydi.

Mobil ilovalar orqali ko'rsatilayotgan xizmatlarning asosiy muammolaridan biri — foydalanuvchi roziligi va ruxsat so'rovlarining avtomatizmga aylanishidir. Foydalanuvchilar ko'plab hollarda geolokatsiya, biometrik ma'lumotlar, kontaktlar, fayllarga kirish ruxsatlarini ilovani ishlatish uchun majburan tasdiqlamoqdalar. Bu esa shaxsiy hayot daxlsizligi, ma'lumotlar xavfsizligi va huquqiy muhofazaga oid savollarni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, mavjud qonunchilik, jumladan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun va axborot xavfsizligi nizomlari, nazariy jihatdan ishonchli mexanizm bo'lsa-da, amaliyotda ularning qanday amalga oshirilayotganiga oid monitoring tizimi yetarlicha faol emas. Bu esa raqamli xizmatlarning ishonchiligini baholashda foydalanuvchi subyektivligini kuchaytiradi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Mobil ilovalarda ruxsat siyosatining soddalashtirilgan va tushunarli versiyasi yaratilishi lozim. Har bir ruxsat (geolokatsiya, biometrika, galereya va h.k.) bo'yicha foydalanuvchiga nima uchun kerakligi, qanday foydalanilishi va qanchalik xavfsiz ekani aniq bayon etilishi kerak.
2. Foydalanuvchi roziligi mexanizmlari mustahkamlanishi kerak. Rozilik berish bir martalik tugma bilan emas, balki interaktiv shaklda (bosqichma-bosqich) amalga oshirilsa, foydalanuvchi ongli tanlov qiladi.
3. Ilovalar uchun "Shaffoflik reytingi" tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bunda foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlar bilan qanday ishlanayotganini baholovchi mustaqil reyting tashkiloti faoliyat yuritadi.
4. Axborot xavfsizligi va foydalanuvchi huquqlari bo'yicha muntazam monitoring va audit tizimi shakllantirilishi zarur. Bu orqali ilovalarning qonunchilikka muvofiqligi baholanadi.
5. Mobil xizmatlar uchun yagona "foydalanuvchi siyosati standarti" ishlab chiqilishi foydalanuvchining barcha raqamli platformalarda bir xil asosda himoyalanishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish – bu texnologik taraqqiyotning muhim ko'rinishi, ammo foydalanuvchi erkinligi, huquqlari va shaxsiy axborotlari bilan muvozanatlari yondashuvni ta'minlamasdan, bu taraqqiyot to'liq ijobiy natijalarni bermasligi mumkin. Shu bois raqamli qulayliklar bilan bir qatorda, shaxsiy ma'lumotlar va axborot xavfsizligini muhofaza qilish – zamonaviy raqamli siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi kerak.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). To'lov tizimlari operatorlari va to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning to'lov tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash nizomi. [Qaror raqami: 3513-son, 21.05.2024]. URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-6933268>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). Davlat xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida [Farmon raqami: PF-113, 20.04.2022]. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5971599>
3. Statistika agentligi. (2024). O'zbekistonda mobil aloqa bilan ta'minlanganlar soni 34 milliondan oshdi. URL: <https://kun.uz/uz/news/2024/02/06/ozbekistonda-mobil-aloha-bilan-taminlanganlar-soni-34-milliondan-oshdi>
4. Soliq Servis. (2024). «Soliq» mobil ilovasi bo'yicha statistik ma'lumotlar. URL: <https://api.soliq-servis.uz/news/soliq-mobil-ilovasi-bo-yicha-statistik-ma-lumotlar-4/>
5. O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida» Qonuni, 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son URL: <https://lex.uz/docs/-4396419>
6. Kapital.uz – «Uzum» ekotizimi 2024-yil yakunlari: foydalanuvchilar soni va moliyaviy ko'rsatkichlar. [Elektron resurs]. Murojaat qilingan sana: 19.04.2025. URL: <https://kapital.uz/itogi-2024-uzum/>
7. Payme.uz Spot.uz – «Payme 2023-yilgi moliyaviy natijalarini e'lon qildi». [Elektron resurs]. Murojaat qilingan sana: 19.04.2025. URL: <https://www.spot.uz/ru/2024/02/18/payme-2023/>
8. Gazeta.uz – "Click 2023-yilning 'Moliyaviy xizmatlar. To'lov ilovalari yo'nalishida «Yil brendi» deb e'tirof etildi". [Elektron resurs]. Murojaat qilingan sana: 19.04.2025. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2024/05/21/click/>
9. My.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi interaktiv davlat xizmatlari yagona portali. «11 yil siz bilan!» [Elektron resurs]. Murojaat qilingan sana: 19.04.2025. URL: <https://www.my.gov.uz/ru/news/1374>

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 5 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).